

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA – MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YENGIL SANOATI TEXNOLOGIYASI FAQULTETI

Himoyaga ruxsat etildi
fakultet dekani, dotsent
_____U.Meliboyev
«_____»_____2016 y.

Kafedra mudiri, dotsent
_____X.Parpiyev
«_____»_____2016 y.

**5320900 - «Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi
(to`qimachilik texnologiyasi)» ta`lim yo`nalishi bo`yicha bitiruvchi**

Xasanov Baxtiyor To`xtapo`latovichning

«"TOSHBULOQ TEKS" korxonasida qayta tarash tizimida ip yigirish
texnologiyasini joriy etishni amaliy muammolari» mavzusidagi

BITIRUV MALAKA ISHI

Bitiruvchi:
Rahbar :
Maslahatchilar:

B.Xasanov
B.Mirzaboyev
A.Akramov
B.Mirzaboyev

NAMANGAN 2016 YIL

M U N D A R A J A

Kirish	3
1. Choyshobob mato tavsifi.....	5
2. Texnologik qism.....	7
2.1. Ipning sifati.....	7
2.2. Xom ashyo tanlash va uni asoslash.....	7
2.3. Paxta tolalaridan aralashma tuzish qoidolari.....	8
2.4. Texnologik jihozlarni tanlash va u.larni asoslash.....	12
3. Yigirish rejasini tuzish va muvofiqlash.....	24
3.1. Qisqa yigirish rejasini tuzish.....	24
3.2. Jixozlarni unumdorliklarini aniqlash.....	31
3.3. Tolalar aralashmasidan mahsulot chiqishi.....	38
3.4. O'timlar bo'yicha soatli topshiriqlarni hisoblash va taqsimlash.....	41
3.5. Yigirish rejasini qayta hisoblash.....	47
3. Yengil sanoat korhonalarini shamolatish sistemasini takomilashtirish...	59
4. Tashkiliy iqtisodiy qism.....	63
4.1. Yigirish korhonasi ishlab chiqarish dasturi.....	64
4.2. Xom ashyo balansi tuzish.....	65
4.3. Tugallanmagan ishlab chiqarish.....	68
4.4. Korxonada ishchilar sonini aniqlash.....	73
4.5. Korhonaning tashkiliy texnologik ko'rsatkichlari.....	75
Umumiy hulosalar va tavsiyalar.....	76
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

KIRISH

Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ham ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Biz ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish uchun katta mablag` sarflaymiz, ko`p miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb etamiz. Lekin qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlardan to`liq foydalanishda, mehat samaradorligini oshirishda yo`l qo`yilayotgan kamchiliklar mahsulotlar tannarxining asossiz ravishda o`sib ketishiga olib kelmoqda. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishida va shu asosda jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda Milliy iqtisodiyotimizning etakchi tarmogii bo`lgan to`qimachilik sanoati alohida o`rin egallaydi. [1]

Mustaqillik yillarida yengil sanoat mamlakatimiz makroiqtisodiy kompleksida mustahkam o`rin egalladi. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida qulay sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar, mustahkam me'yoriy-huquqiy baza yaratilayotgani samarasida tarmoq korxonalari salmoqli yutuklarga erishmoqda va sifat jihatidan rivojlanishning yangi bosqichiga ko`tarildi.

Engil sanoat zamonaviy bozor sharoitida iqtisodiyot yuksalishini, mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishda muhim o`rin tutadi. Jahonda paxta tolasini ishlab chiqarishda yetakchi o`rinlardan birini egallab turgan O`zbekiston tashqi bozorga xomashyo o`rniga yuqori ko`shimcha qiymatga ega tayyor to`qimachilik mahsulotlarini yetkazib bermoqda.

Yurtboshimiz to`qimachilik sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor berib, «Biz qudratli to`qimachilik va engil sanoatni yaratishimiz kerak. hamma taraqqiy etgan sivilizatsiyalashgan davlatlar singari xom-ashyo – paxta emas, tayyor mahsulotni sotishimiz zarur», deganlari soha mutaxassislarining oldidagi asosiy dasturiy vazifasi deb hisoblanadi[1].

Respublikamizda asosiy to`qimachilik xom-ashyosi bo`lgan paxta tolasini qayta ishlash hajmini oshirish, yigirilayotgan turli assortimentdagi iplarni xorijga xom-ashyo sifatida emas, sifatli ip gazlamalar ishlab chiqarishga yo`naltirish va

mavjud imkoniyatlardan foydalanib to`qima ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, jahon bozorida «O`zbekistonda ishlab chiqarilgan» tamg`asi ostida rakobatdosh tayyor mahsulotlar bilan savdo qilishga erishish muammolarini hal etish hozirgi kunda to`qimachilik mutaxassislari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Bu maqsadga erishishning asosiy yo`llaridan biri jahon standartiga javob bera oladigan, rakobatbardosh xilma-xil to`qimalar ishlab chiqarishni ilm-fan yutuklarini hisobga olgan holda amalga oshirishdir. Bu boradagi barcha yangilik va tashkiliy o`zgarishlarni his eta oladigan menedjer, mukandis-texnolog tayyorlash to`qimachilik sanoatini taraqqiy ettirishda alohida ahamiyat kasb etadi.[1]

Yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlashda hozirgi kunda ichki va tashqi bozorning talablarini o`rganish maqsadga muvofiq. Shuningdek, soha korxonalari mahalliy to`qimachilik xom-ashyolarni qayta ishlash hajmini oshirish va import o`rnini bosa oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirilishi darkor.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda iste'molchilar talablarini ko`ndira oladigan tabiiy tolali matolar ishlab chiqaruvchi korxonalarni loyihalash va mavjud korxonalarni qayta jihozlash har jihatdan muhim hisoblanadi.

Bituruv malakaviy ishimizda Toshbuloq TEX ip yigirish korhonasini qayta jihozlash orqali chayshobbop matolar uchun chiziqli zichligi 10.8 tekisli tanda va 9.5 tekisli arqoq iplarini ishlab chiqarishni vazifa qilib oldik

1. Choyshobob mato tavsifi (va tasnifi)

Ishlab chiqarish usuliga ko`ra tikuvchilik materiallari to`qima (gazlamalar), trikotaj, noto`qima va boshqa materiallarga bo`linadi. Ulardan gazlama eng ko`p qoplaniladi. Tikuv korxonalarda turli artikuldagi gazlamalar ishlatiladi.[2]

To`quvchilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan gazlama turlari ichida ip gazlamalari alohida o`rin egalaydi. Ularning asosiy qismi klassik paxta tolasidan ishlab chiqarilgan turlari tashkil qiladi. Shuningdek, paxta tolasining viskoza, labsan, nitron tolalari bilan aralashmasidan olinadigan gazlamalar ham keng tarqalgan. Har yil ishlab chiqariladigan paxta tolalari gazlamalarning (ip gazlamalari) 10-12% yangi tuzilishdagi va pardoatlanishdagi gazlamalar hisobiga o`zgaradi.

Perkal - bu ingichka sifatli paxta tolasigan olingan iplardan to`qilgan oddiy o`rilishili t`yqima. Uning tashqi ko`rinishi batis matosiga o`xshaydi. Asosiy farqi shundaki materialni mustahkamligi va silliq yuzali. iplarning zichligi o`n santimetrda 90-160 tani tashkil etadi.

Perkalni osonlik bilan bo`yash yoki unga murakkab rasmni tushirish mumkin. Bunday ishlov berish bilan birga gazlamaning havo o`kazuvchligi yuqori. Pektal matosi choyshab va yostiqlar, ko`rpalar ich kiyim sifatida ishlatiladi. Yaxshi dazmollanadi, shaklini va rangini uzoq saqlaydi. Uni yuvishdagi suv xarorati 60°C dan 150°C gacha. Perkal matosidan yotarjoy uchun, hamda ich kiyimga juda mos keladi[3.4].

Matoning teknik harakteristikalari

1 -jadval

Matoning atamasi	Arti qul nomeri	Mato ning eni, sm	Ipning chiziqli zichligi, teks			Iplar soni		10 sm matodagi iplar soni		Urabotka	
			Tanda	Arqoq	Mato kirk`og `i	Jami	Mato kirk`og`ida gi iplar soni	R ₀	R _u	α_0	α_u
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Perkal-A	1474	142	10,8gr	9,5gr	7,5gr*2	6462	156	454	472	9,1	5,3

davomi

Matoning atamasi	Tig`ning tishlari soni			To`qilish rusumi	To`kuv dastgohining turi	Matoning yuza zichligi, g/m <sup>3</sup>	Chiqindi miqdori, %		100 pog.metr xom to`qimaga sarflangan ip chiqindisiz miqdori, kg	
	nomer	Tishdagi iplar soni					Tanda bo`yicha	Arqoq bo`yicha		
		Fon	kirg`ok							
2	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
Perkal-A	215	2	2	polot no	AT	105	0,5	1,04	7,440kg, 0,260	6,4

2. Texnologik qism

2. 1. Ipning sifati

Ipning sifati va fizik-mexanik ko'rsatkichlari tanlab olingan tolaning hossalariга bevosita bog'lik. Tola kanchalik sifatli bo'lsa, undan olingan ip shuncha sifatli bo'ladi. Lekin o'rtacha yo'g'onlikdagi ip olish uchun yuqori navdagi paxta tolasi qabul qilinsa, ipning sifati yaxshi, ammo tan narhi baland bo'ladi. SHuning uchun ma'lum yo'g'onlikdagi ip olish uchun shunday tola tanlash kerakki, ishlab chiqarilgan ipning sifat ko'rsatkichlari standart talabiga to'liq javob bergan holda uning tan narh arzon bo'lishini ta'minlash zarur.

Bitiruv Malakaviy ishida loyhalanayotgan ipning fizik mexanik hossalari quyidagicha

Ipning fizik-mexanik hossalari

2-jadval

Ipni chiziqli zichligi, teks	Kondision chiziqli zichlik va nominal chiziqli zichlik orasidagi ruhsat etilgan farq, %	Seleksion nav	Nisbiy pishqlik		Sifat ko'rsatkichi	Pishqlik bo'yicha variatsiya ko'effisienti, %	Pishitish ko'effisienti, α
			sN/teks	Gs/teks			
9,5	+1,5 -2,5	Bir	16	16,3	1,3	12.5	
10,8	+1.5 -2,5	Bir Ikki	15.0 13.7	15.3 14	15 17.5	1.02 0.8	12.3+ 11.5

2.2. Xom ashyo tanlash va uni asoslash.

Bitiruv malaka ishimda qabul qilingan mahsulot turi, yigirish tizimiga, yigirish usuliga, olinadigan iplarning chiziqli zichligi (nomeriga) va eng muhimi ipni qanday maqsadda ishlatilishiga qarab xom ashyo tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bitiruv malaka ishimda “Perkal” gazlamasini to’qish uchun tavsiya etilgan 10,8 teks va 9,5 teks tanda va arqoq iplarini yigirish uchun quyidagi 3-jadvalda xom ashyo tavsiya etilgan .

Tiplar bo`yicha saralanma tuzish

3-jadval

Ipning nominal chiziqli zichligi, teks	Ipning nominal nomeri	Tipli saralash	Izoh
9.5	105	2-I,	-

Yuqoridagi jadvaldan ma’lumki, loyihalanayotgan ip uchun 2-tip paxta tolasi tavsiya etilgan.

Loyihada 2 tip C -6037 seleksion navni qabul qilamiz. Tolalarni seleksion hossalari quyidagi jadvalda keltirilgan [9].

4-jadval

Paxta tolasi tipini	Seleksion navi	Terim turi	Sanoat navi	Namligi, %	SHtapel’ uzunligi, mm	Variatsiya koeffitsienti	Chiziqli zichligi, mTeks	Etilganlik koeffitsienti	Uzilish kuchi, sN	Nisbiy uzilish kuchi, sN/teks	Iflosligi
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.
2	S -6037	qo`lda	I	5	39.8	-	131	2	4.4	33.6	2,2

2.3. Paxta tolalaridan aralashma tuzish.

Odatda ip yigiruv korxonasining yigirish tizimiga, yigirish usuliga, olinadigan iplarning chiziqli zichligi (nomeriga) va eng muhimi ipni qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tolalar aralashmasining tarkibi tanlanadi.

Gazlama to'kish uchun mo'ljallangan iplar o'z navbatida tanda ipi va arqoq ipiga bo'linadi. Tanda ipi gazlamaning asosini tashkil qiladi va bo'ylamasiga yo'nalgan bo'lgani uchun ko'p kuchlanishlarga duch keladi. Arqoq ipi esa gazlamaning eni bo'ylab yo'naladi va unga kuchlanishlar nisbatan kamroq ta'sir etadi. SHuning uchun odatda, tanda ipi yuqori sifatli paxtadan yigiriladi. SHuni ham aytish kerakki, ingichka (yuqori nomerli) iplar olish uchun uzun tolali paxta, o'rtacha chiziqli zichlikdagi iplar olish uchun o'rta tolali paxta, yo'g'on iplar olish uchun esa past navli paxta tolalari bilan birga, yigiruv korhonasi chiqindilarini ham aralashtirib ishlatiladi. Bu esa tolni tejab, ipning tannarhini arzonlashtirib, katta iqtisodiy samara olishga imkon beradi. Demak, ma'lum chiziqli zichlikdagi tanda tanda va arqoq ipoarini yigirib olish uchun paxta tolasidan turlicha aralashma tuzish lozim.[9]

Ip yigirish uchun tanlangan paxta tolalarining fizik mehanikaviy hossalari bo'yicha farqlari ma'lum oralikda bo'lishi kerak. Odatda, ushbu farqlarni keskin bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Paxta tolalarini aralashmaga tanlashda quyidagi qoidalarga albatta rioya qilish kerak:

1. Aralashma tarkibida eng kamida 24 ta toy paxta bulish kerak.
2. Aralashmaga kiradigan tolalarning uzunligi bo'yicha farqi 1-2 mm dan oshmasligi kerak.
3. Aralashmaga kiradigan tolalarning chiziqli zichligi bir-biriga juda yaqin bo'lishi kerak.
4. Aralashma tarkibiga paxtaning yonma-yon turgan sanoat navlari tanlanishi kerak.
5. Aralashmaga eng kamida ikkita paxta zavodining paxtasidan 6-8 ta markada tanlash kerak.

Mana shu qoidalar bajarilganda bir hil hossali aralashma olinadi. Bir hil hossali aralashmadan yuqori sifatli ip olish oson.

Ip yigiruv korhonalarida ma'lum chiziqli zichlikdagi ip yigirib olish uchun tipoviy sartirovkadan foydalaniladi. Tipaviy aralashmalar ilmiy tadkikotlar asosida ishlab chikilgan bo'lib, paxta tiplari asosida tuzilgan. SHuningdek ishlab chiqarilayotgan ipning tan narhini kamaytirish uchun turli navdagi tolalar aralashtirish ip yigirishda

Chiziqliy zichligi 10.8 teksli tanda va 9.5 teksli arqoq iplarni yigirish uchun aralashma tolalarni urtacha qiymati quyidagicha hisoblanadi

5-jadval

Tipli saralash	Aralashma tarkibi, %
Tanda ipi uchun 2-I,	100
Arqoq ipi uchun 2-I	100

Tanda va arqoq ipi uchun:

$$\alpha_{\kappa,p} = \frac{31,6}{100} \cdot \left[\frac{(1120 - 70 \cdot P_m) \cdot P_m}{L_m} + \frac{57,2}{\sqrt{T_{un}}} \right] = 0,316 \cdot \left(\frac{(1120 - 70 \cdot 4,4)4,4}{39,8} + \frac{57,2}{\sqrt{10,8}} \right) = 34,01$$

Tolaning hossa ko'rsatkichlardan $R = 4,5$ sN, $L_{\text{sh}} = 39,8$ mm, $T = 138,2$ mteks ekanligi topiladi. Chiziqliy zichligi 72 teksli arqoq ipi olish uchun.

$$\alpha_{\kappa,p} = \frac{31,6}{100} \cdot \left[\frac{(1120 - 70 \cdot P_m) \cdot P_m}{L_m} + \frac{57,2}{\sqrt{T_{un}}} \right] = 0,316 \cdot \left(\frac{(1120 - 70 \cdot 4,4)4,4}{39,8} + \frac{57,2}{\sqrt{9,5}} \right) = 34,2$$

Olingan α_{kr} qiymatlarini ma'lumotnomadan olingan qiymati bilan solishtirilib, ularning farqi aniqlanadi va $\alpha_t - \alpha_{\text{kr}}$ dan chikkan farq khhisobiga «K» ning miqdori 6-jadvaldan aniqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan filtrbop matolar uchun chiziqliy zichligi tanda ipi 10,8 teks va chiziqliy zichligi 9,5 teks arqoq ipi uchun ma'lumotnomadan qabul qilingan pishitish koeffisienti [10] tanda ipi uchun $\alpha_t = 31,8$ ga, arqoq ipi uchun $\alpha_t = 31,6$ ga teng.

Pishitishga tuzatma K ning qiymatlari.[6]

6-jadval

$\alpha_t - \alpha_{kr}$	K	$\alpha_t - \alpha_{kr}$	K	$\alpha_t - \alpha_{kr}$	K
-15,80	0,7	-3,16	0,98	9,48	0,94
-12,60	0,8	-1,58	0,99	12,6	0,91
-9,48	0,86	0	1	15,8	0,88
-7,90	0,91	3,16	0,99	18,9	0,85
-6,32	0,94	4,74	0,98	22,1	0,82
-4,74	0,96	6,32	0,96	25,3	0,79

Tanda ipi uchun hisoblash ishini amalga oshirib jadvaldan K ni topamiz:

$$\alpha_t - \alpha_{kr} = 31,8 - 34,01 = -2,24 \quad K = 0,99$$

Arqoq ipi uchun hisoblash ishini amalga oshirib jadvaldan K ni topamiz:

$$\alpha_t - \alpha_{kr} = 31,6 - 34,2 = -2,6 \quad K = 0,99$$

Hamma olingan ko'rsatkichlarni o'z o'rniga qo'yilsa, tanda ipi uchun:

$$R = \frac{P_m}{T_m} \cdot \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{T_{un}}{T_m}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{L_m} \right) \cdot \eta \cdot K = \frac{3,22}{0,138} * \left(1 - 0,0375 * 5,0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{10,8}{0,138}}} \right) * \left(1 - \frac{5}{40,04} \right) * 0,99 * 1 = 15,8 \text{ sN/teks}$$

Arqoq ipi uchun:

$$R = \frac{P_m}{T_m} \cdot \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{T_{un}}{T_m}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{L_m} \right) \cdot \eta \cdot K = \frac{4,5}{0,138} * \left(1 - 0,0375 * 5,0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{9,5}{0,138}}} \right) * \left(1 - \frac{5}{40,04} \right) * 0,99 * 1 = 16,4 \text{ sN/teks}$$

topildi.

Hisoblab olingan $R_h = 15.8$ sN/teks nisbiy uzish kuchiga ega tanda ip uchun mavjud me'yorlar talabi ($R_j=15$ sN/teks), $R_h = 16.4$ sN/teks nisbiy uzish kuchiga ega arqoq ipi uchun mavjud me'yorlar talabi ($R_j=16$ sN/teks) bilan solishtirib aralashmadan ishlab chiqariladigan ipning navi aniqlanadi. Yuqoridagi hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki, ip yuqori sifatli bo'lib ishlanadi. Agar pastroq uzish kuchiga ega ip olish kerak bo'lsa, aralashma tarkibini o'zgartirib (pastroq navdagi paxta tolalarini tanlab) R_h ni takroran hisoblab chiqish kerak.

Umuman olganda $R_h > R_j$ dagi farq juda katta bo'lsa, aralashma tarkibidagi tolalar yahshi va qimmat turadigan tolalar ekanligini ko'rsatadi. SHuning uchun olinadigan ipning sifatini pasaytirmasdan, aralashma tarkibiga boshqa arzonroq tola tanlash yoki tanlamaslikni ishlab chiqaruvchi va haridor o'zaro kelishib olishi kerak.

Hozirgi paytda ip sifatining asosiy ko'rsatkichi nisbiy pishiqligidan tashqari ipning Uster bo'yicha chiziqliy va kvadratik notekisligi, hamda nepslar miqdori, ingichka va yo'g'on joylari va ip ustidagi tuklar soni bilan baholanadi.

Taklif etilgan formulalar yordamida hisoblab topilgan natijalar nazariy bo'lganligi uchun ip sifatiga, eng avvalo ipning nisbiy uzilish kuchini qo'yilgan talab darajasidan 3 - 5 % yuqoriroq natijani asos uchun qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Bizning holatimizda talab darajasida ekanligi tanlangan xom ashyo tarkibi standart tolalariga javob berish hisob kitoblardan ko'rinib turibdi.

2.4. Texnologik jihozlarni tanlash va ularni asoslash.

Ip yigirish tizimini tanlaganda, yigiriladigan ipga qo'yilgan talablarga qarab, yigirish o'timlari, usullari aniqlanadi. Ip olishda karda, qayta tarash va apparat sistemalaridan biri, halqali yoki pnevmomehanik usulda ishlaydigan yigirish mashinalari tanlanadi. Yigirish uchun tanlangan usullarga qarab mashinalar tarkibi aniqlandi va har bir tanlangan mashinalar atroflicha asoslanib, ularning

tehnika tavsiflari keltirildi. Loyihada tanlangan har bir rusumdagi mashinaga tushuncha berildi. Bunda mashinalarning kaysi firma ishlab chiqarilganligi, bu mashinalar birorta fabrikada qo'llangan bo'lsa, qanday ko'rsatkichlar bilan ishlayotganligi va boshqa mashinalardan qanday afzalliklari borligi ko'rsatildi. Mashinalarni tanlashda fan taraqqiyoti, texnika va texnologiyaning rivojlanish yo'nalishlarini yaxshi tahlil qilib asoslandi.

Mashinalarni tanlashda hozirgi zamondagi fabrikalarda qo'llanadigan o'ramlar (g'altaklar) o'lchami katta bo'lishi ham nazarda tutildi. SHunday qilinmasa, mehnat unumdorligi past bo'ladi. SHu bilan birga, shunday mehanizm va moslamalarni qabul qilindiki, ularni qo'llash natijasida mehnat sharoiti yaxshilandi va mashinalarning ish unumdorligi yuqori bo'lishligi e'tiborga olindi. Tanlangan mashinalardagi cho'zish asbobining turlari, urchuklarning tiplari, halqa va yugurdaklarni, ta'minlash ramkalarini, markaziy moylash sistemalarini, mashinalarni avtomatik to'htatish va yurgizish moslamalarini, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mashinalardan avtomatik ravishda olish va shaylashni shunday tanlandiki, natijada qo'l mehnati kamaydi, mashinalarning uzluksiz ishlashi ta'minlandi. Qabul qilingan mashinalar yuqori sifatli butlovchi materiallar (ustki valiklarni qoplash uchun elastik rezinalar, tarash mashinasining barabanlariga qoplash uchun garnituralar, katta diametrli tazlar, g'altaklar va boshqalar) bilan ta'minlanishi e'tiborga olindi.

Bitiruv malakaviy ishimda Shvesariyaning «Rieter» firmasining jihozlaridan foydalandim. Chunki «Rieter» firmasi bugungi kunda yuqori unumdorlik va sifatga ega bo'lgan to'qimachilik mashinalari ishlab chiqaruvchi etakchi firmalardan biri hisoblanadi. SHuningdek, mashinalar avtomatlashtirilgan va mahsulot sifatini yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, loyihalanayotgan korhonada ishlab chiqarish sharoitini va ishlab chiqariladigan mahsulotni takkoshlash, loyihani mukammal tarzda bajarish maqsadida hozirgi kunda Namangan viloyati Pop shahridagi pnevmomehanik usulda ip yigirilayotgan «TOSHBULOQ TEX» korhonasini tanlab oldim.[7]

7-jadval

№	Texnologik jarayondagi jihozlar	Jihozlar markasi	
		«TOSHBULOK TEX» nomli korhonada o`rnatilgan jihozlar	Loyihada qabul qildim
1.	Avtomatik toy titgich	UNIfloc A11	UNIfloc A 11
2.	Dastlabki tituvchi tozalovchi mashina	UNIfloc B12	UNIfloc B 12
3.	8 kamerali tola aralashtirgich	UNImix B70	UNImix V 72
4.	Tozalovchi mashina	UNIflex 60	UNIflex V 60
5.	CHangdan tozalagich	DX	DX
6.	Tarash mashinasi	C 70	S 70
7.	Piltalash mashinasish	SB-D 35	SB-D 45
8.	Qayta tarashga tayorlash		UNIfap E35
9.	Qayta tarash mashinasi		E80 Comber
10.	Piltalash mashinasi 1-2 o`tim		SB-D45 RSB-D 45
11.	Piliklash mashinasi		F-35
12.	Egirish mashinasi	R 40	G35
13.	Qayta o`rash mashinasi		Autoconer X5

Texnologik jarayondagi jihozlarning texnik tavsiflari

UNIfloc A 11-1700/2300 rusumli avtomatik toy titgichi kimyoviy va tabiiy tolalarni titishga mo`ljallangan bo`lib, 1400 kg/soat unumdorlik bilan ishlaydi. Bir paytning o`zida to`rt hil tolalarni titib berishga moslashtirilgan. Stavkadagi toylar soni 180 tani tashkil etishi bilan birga birdaniga uchta tozalash liniyasidagi mashinalarga mahsulot etkazib bera oladi.

8-jadval

№	Tehnik ko`rsatkichlari	O`lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1700/2300
2	Balandligi	mm	2822
3	Toyning mak. balandligi	mm	1600
4	Mashinaning min.eni	mm	5273
5	Mashinaning mak.eni	mm	6453
6	Mashinaning min. uzunligi	mm	10670
7	Mashinaning mak. uzunligi	mm	50270
8	Elektr energiya sarfi	kvt	14,6/16,3
9	Mak. ish unumdorligi	kg/s	1400
10	Mak.toylar soni	dona	150
11	Qabul qildim mak.toylar soni	dona	84
12	Mashinaning mak. uzunligi	mm	47,2

UNiclean B 12 dastlabki tituvchi tozalovchi mashnasi. «Rieter» firmasi bir necha o`n yillar davomida titish tozalash agregatlari tarkibida o`rnatiladigan tozalovchi mashinalar sonini samarali minimumga etkazish maqsadga erishildi. Bunga erishish uchun sifatini saklagan holda dastlabki titishda minimal og`irlikdagi bo`lakchalarga ajratib, has cho`plarni sirtga chiqarishga erishish; birinchi boskichda yuqori samara bilan tozalash; has cho`plarni changini tozalash; has cho`plarni maydalanishini oldini olish hisobiga navbatdagi boskichda tozalash jarayonini oldini olish; tozalash jarayonida tolalarni chiqindiga chiqishini kamaytirish hisobiga erishiladi.

9-jadval

№	Tehnik ko`rsatkichlari	O`lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1600
2	Balandligi	mm	2000
3	Mashinaning min.eni	mm	1040
4	Mashinaning uzunligi	mm	2205
5	Elektr energiya sarfi	kvt	15.3
6	Mak. ish unumdorligi	kg/s	1400

UNImix I 72 rusumli 6 kamerali tola aralashtirgichi tolalarni aralashtiruvchi mashina tozalangan tolalarni samarali aralashtirish uchun hizmat qiladi. Bu mashina tozalovchidan keyin agregatda o`rnatiladi. Mashina yuqori aralashtirish samaradorligiga ega. Tolalar kanal orkali havo okimi bilan ilgarilanma harakat qilib shahtalarga o`tadi. Ajratuvchi silindrlar yordamida tola turli uzunlikdagi oltita kameraga tushadi. Kameralardagi tolalar konveyer yordamida yon tomonga surilish oqibatida 90 gradusga burilib ustma-ust tahlangan katlamlar ko`rinishiga keladi va zichlanadi. Yo`naltiruvchi valiklar mahsulotni bir tekisda harakatlanishini va ignali panjara bilan tartibli ravishda vertikal bo`yicha ilib olinishini ta'minlaydi. Ignali panjarada tolani ko`shimcha titishni amalga oshirish uchun tekislovchi baraban, ajratuvchi baraban o`rnatilgan. Baraban tolalarni chiqarish koni uzatib beradi. Aralashtirish kamerasida yuzaga kelgan chang va momik kanal orkali surib olinadi va filtrga yuboriladi.

10-jadval

№	Tehnik ko`rsatkichlari	O`lchov birligi	Qiymati
1	Bunkerlar soni	mm	8
2	Bunkerning eni	mm	1600
3	Bunkerning chukurligi	mm	500
4	Mashinaning eni	mm	1510
5	Mashinaning uzunligi	mm	7830
6	Balandligi	mm	4173
7	Elektr energiya sarfi	kvt	4.4
8	Mak. ish unumdorligi	kg/s	800

UNIflex B 60 tozalovchi mashnasi

«Rieter» firmasi bir necha o`n yillar davomida titish tozalash agregatlari tarkibida o`rnatiladigan tozalovchi mashinalar sonini samarali minimumga etkazish maqsadga erishildi. Bunga erishish uchun sifatini saklagan holda dastlabki titishda minimal og`irlikdagi bo`lakchalarga ajratib, has cho`plarni sirtga chiqarishga

erishish; birinchi boskichda yuqori samara bilan tozalash; has cho`plarni changini tozalash; has cho`plarni maydalanishini oldini olish hisobiga navbatdagi boskichda tozalash jarayonini oldini olish; tozalash jarayonida tolalarni chiqindiga chiqishini kamaytirish hisobiga erishiladi. Firmada ishlab chiqarilgan mashinalar va ulardan tuzilgan agregatlar barcha turdagi paxta va kimyoviy tolalarni, ularni aralashmasini ishlatishga moslashgan. Tozalovchi odatda avtomatik toy tituvchidan keyin o`rnatiladi. Bu titilgan mayda bo`lakchalarni tezda tozalash imkoniyatini beradi. Mashinada o`rnatilgan tozalovchi baraban sirtiga mahsus ko`rinishdagi shtift-koziklar o`rnatilgan. Bu kozikchalar mahsus po`lat simdan tayyorlanagan va baraban sirtiga vint chizigi bo`yicha joylashtirilgan. Baraban ostida uch kirrali chiqindi chiqaruvchi panjara o`rnatilgan. Baraban koziklari materialni panjara kirralariga urishi oqibatida undan has cho`p va nuksonlar ajralib tozalanadi. Kozikni kichik va siyrak o`rnatilganligi hisobiga tolaga zarba kuchi uncha katta bo`lmaydi. Bu esa tolani zararlanmasligini ta`minlaydi. SHu bilan bir katorda mashinada erkin holda tozalanayotgan tolalar baraban atrofini bir necha marta aylanib o`tadi. Har bir aylanib o`tishda ular perforasiyalangan sirtdan o`tadi. Natijada tolalardagi chang, mayda zarralar va kalta tola ajratiladi.

11-jadval

№	Tehnik ko`rsatkichlari	O`lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1600
2	Xom ashyo turi		Paxta,lyon
3	Ishchi qismining eni	mm	1200
4	Tozalovchi valik diametri	mm	400
5	Tozalovchi valik aylanishlar soni	ayl/min	500-1300
6	Balandligi	mm	3853
8	Mashinaning eni	mm	1800
9	Mashinaning uzunligi	mm	1430
10	Elektr energiya sarfi	kvt	9,0
11	Mak. ish unumdorligi	kg/s	500

«Rieter» firmasining C 70 rusumli tarash mashnasi

Titish-tozalash agregatidan so`ng paxta tolasining nuksonladan tozalashning ohirgi boskichi tarash mashinalarida amalga oshiriladi. «Rieter» firmasining S 70 rusumli tarash mashnasi yuqori unumdorlikka ega.

12-jadval

№	Tehnik ko`rsatkichlari	O`lchov birligi	Qiymati
1	Chiqarish tezligi	m/min	330
2	Tola uzunligi, gacha	mm	65
3	Mak. ish unumdorligi	kg/s	280
4	Piltaning chiziqli zichligi	kteks	4-20
Tozlar			
5	Tozlarning diametri	mm	450-1000
6	Tozlarning balandligi	mm	900-1500
7	To`g`ri to`rtburchakli tazning eni	mm	220 h920
8	To`g`ri to`rtburchakli tazning balandligi	mm	1070 va 1200
9	Umumiy cho`zilish qiymati	E	moslanadi
10	Elektr energiya sarfi	kvt	21.0-21.7
11	Tozlarning diametrini qabul qildim	mm	1000
12	Tozlarning balandligi	mm	1200
13	Mashinaning eni	mm	1500
14	Balandligi	mm	3325
15	Mashinaning uzunligi	mm	5990
Pilta tahlovchi moslama			
16	Moslama eni	mm	2960
17	Moslama uzunligi	mm	1525+1200

S 70 rusumdagi tarash mashinasi bir kator hususiyatlarga ega. Bular – ta'minlash bunkerining ko`p qismliligi, ta'minlash stolchasining silindr ustida

joylashib, unga ta'minlash silindrining pastdan yuqoriga bosilib turishi, qabul barabanining uchtaligi va boshqa bir kator konstruktiv hamda texnologik xususiyatlaridir. Eng asosiysi yuqori unumdorlikda ham mahsulotning talab darajasidagi sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Mashinaning qabul barabani qismi oddiy va uchta barabandan iborat. Mashinada tarash zonasining uzaytirilganligi, ya'ni mashina eni 1000 mmdan 1500 mmga oshirilganligi va mashinada qoplamalar tishlarini o'tkirlab turuvchi yangi IGS sistemasini qo'llanilishi natijasida mashina ishlash vaktini oshirish bilan birga mahsulot sifatini yaxshilanishiga olib keldi.

SB-D 45 va RSB-D 45 rusumli «Rieter» firmasi pitalash mashnasi

Rieter firmasining pilta tayyorlash jihozlari sistemasi pitalash mashinalari, piltani qayta tarashga tayyorlash jihozlari va qayta tarash mashinalaridan iborat.

Pitalash mashinalari tarash va qayta tarash mashinalaridan olingan piltani ko'shish va cho'zish asosida undagi tolalarni tekislash, parallellash va notekisligini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Firma bir necha rusumdagi mashinalarni ishlab chiqaradi. Ularda chiqarish tezligi 1100 m/min ga teng.

Mashinada o'rnatilgan uch silindrli cho'zish asbobi valiklariga bosim pnevmatik usulda 800 N gacha yuzaga keltiriladi. Piltani tahlashda zichlovchi moslamaning o'rnatilishi idishdagi pilta og'irligini 10 % ga oshirish imkonini beradi. To'lgan idishlarni almashtirish avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Cho'zish zonasidan changli havoni tortib olinishi sehdagi ekologik tozalikni ta'minlaydi.

Mashinani ta'minlash stoli idishni balandligiga moslab 1400 dan 2000 mm gacha balandlikda o'zgartirilishi mumkin. Cho'zish zonasidan chikayotgan piltani yo'naltiruvchi kanal-patrubkaga havo yordamida zapravka qilinishi xizmat qilishni osonlashtiradi. Mashinalarda piltani chiziqli zichligini avtomatik rostlovchi mexanizmlar o'rnatilgan.

13-jadval

№	Tehnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati	
			SB-D 45	RSB-D 45
1	Chiqarish tezligi	m/min	1100	1100
2	Tola uzunligi, gacha	mm	10-80	10-80
3	Mak. ish unumdorligi	kg/s	hisobiy	hisobiy
4	Ta'minlanayotgan piltaning chiziqli zichligi	kteks	12-50	12-50
5	CHikayotgan piltaning chiziqli zichligi	kteks	1,25-7	1,25-7
6	CHo'zish asbobi rusumi		4h3	4h3
Tozlar				
7	Tozlarning diametri	mm	210-1000	210-1000
10	Tozlarning balandligi	mm	210-1520	210-1520
11	Umumiy cho'zilish qiymati	E	4,4-11,7	4,5-11,6
12	Tozlar diametri 1000 mm bo'lganda	kvt	5,0+2,0	7,5+3,6
13	Piltalarning ko'shilishlar soni	dona	6-8	6-8

Riter firmasining UNI lap E 35 rusumli qayta tarashga tayorlash mashinasi

№	Tehnik ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	kiemati
1	Chiqarish tezligi	m/min	70-120
2	Mak. Ish unmdorlik	Kg/soat	480
3	Piltalarni chiziqli zichligi	kteks	3,3-6
4	Holstchaning chiziqli zichligi	kteks	140
5	Holstchaning eni	mm	300
6	Holstchaning massasi	kg	25
7	Piltalarningko'shilishlar soni	dona	28

8	Umumiy cho`zilish kymati	E	1.36-2.2
9	Elektr energiya sarfi	kvt	7-2.2
10	Piltalarningko`shilishlar soni	dona	24
11	Mashinaning gabarit o`lchami		
12	Mashinaning eni	mm	6890
13	Balandligi	mm	2800
14	Mashinaning uzunligi	mm	8013

Riter firmasining E 80 somber rusumli qayta tarash mashinasi

Riter firmasining E 80 somber rusumli qayta tarash mashinasida kalta tolalardan chiqarib yuborish maeda nuksonlardan tozalash tolalrni paralellashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Taminlash usuliga qarab o`rta darajada tarashda kamida 8% gacha tarandi hosil bo`ladi taminlashning o`ziga hos “orkaga” yo`nalishi qabul qilinganda tarandi 25% gacha boradi.

14-jadval

№	Tehnik ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	Qiymati
1	Mak.grebenli taroqning tezligi	m/min	450
2	Mak. Ish unumdorligi	Kg/soat	66
3	Piltaning chiz zich	kteks	3-6
4	Cho`zish asbobining rusimi		3x3
5	Holstchaning eni	mm	300
6	Holstchaning diyametri	mm	650
7	Tazning diyametri	mm	600x1200
8	Umumiy cho`zilish qiymati	E	9.12-25.12
9	Elektr energiya sarfi	kvt	3.5
10	Mashinaning eni va uzunligi	mm	2431/7195
11	Mashinaning balandligi		

“Rieter” firmasining Roving fraviml F-35 rusmli piliklash mashinasi

“Rieter” firmasining Roving fraviml F-35 rusmli piliklash mashinasiga hizmat ko`rsatish uchun qulay va yuqori unumdorlikka ega. Ularda boshqarish kurilmasi bir nechta joyda taminlash va chiqarish zonalarida o`rnatilgan. Bu vaktidan unumli foydalanish imkonini beradi

15-jadval

№	Tehnik ko`rsatkichlari	O`lchov birligi	Qiymati
1	Piliklarning chiziqli zichligi	teks	170-1450
2	Umumiy cho`zish qiymati	E	4-20
3	Jami urchuklar soni	dona	144-160
4	Urchukning aylanishlar soni	Ayl/min	1500
5	Chiqarish tezligi	m/min	50
6	Buram soni	Bur/metr	17-96
7	Mashinaning eni	mm	2248
8	Mashinaning balandligi	mm	2320
9	Mashinaning uzunligi	mm	20960
10	Bitta seksiyadagi urchuklar soni	dona	12-16
11	Xom ashyo turi		Paxta,kimyoviy
12	Tola uzunligi	mm	60 gacha

“Rieter” firmasining G35 rusumli halqali ip yigirish mashinasi

“Rieter” firmasining G35 rusumli halqali ip yigirish mashinasida pilikdan ip olinadi. Yigiruv mashinalarining cho`zish asboblari o`ziga hos afzalliklarga ega. Ular ustki valiklarga beriladigan bosim 200 N dan ortiq bo`lib, pnevmatik usulda bosiladi.

Yigirish mashinasi texnik tavsifi.

16-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ipning chiziqli zichligi	teks	3,7-132
2	Buramlar soni	Bur/m	200-3000
3	Nomer		7,5-270
4	Urchuk soni	dona	1632
5	Urchukning aylanishlar chastotasi	ayl/min	25000
6	Naycha uzunligi	mm	180-250
7	O'rnatilgan quvvat	kVt	80
8	Gabarit o'lchamlari		
	Uzunligi	mm	63145
	Eni	mm	1062
9	Halqa diametri	mm	35-54

Autoconer X5 o'rash avtomati "Oerlikon-schlafhorst"

Mashinaning texnik tavsifi

17-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	O'rash kurilmalari orasidagi masofa	mm	320
2	O'rash kurilmalari jami soni	dona	60
3	O'rama diametri	mm	320
4	O'raladigan ipni chiziqli zichligi	teks	5,9-333
5	Ip o'ralgan naycha o'lchami		
	Diametri	mm	72
	Uzunligi	mm	360
6	Mashinaning uzunligi	mm	23227
	Eni	mm	1112
7	O'rnatilgan quvvat	kVt	9-21,5

Autoconer X5 o'rash avtomati "Oerlikon-schlafhorst" firmasining qayta o'rash avtomati, naychdagi iplarni konussimon naychalarga qayta o'rash vazifasini amalga oshirib beradi.

3. Yigirish rejasini tuzish va muvofiqlash

3.1.Qisqa yigirish rejasini tuzish

Har bir yigiruv korhonasida ma'lum yo'g'onlikdagi va ma'lum sifatli ip ishlab chiqarilishi lozim. Yigirilgan ip yahshi sifatli va tan narhi past bo'lishi kerak. SHu maqsadda yigirish sistemasiga, xom ashyo sifatiga, ayniksa, tolaning uzunligi va ingichkaligiga qarab, ma'lum yo'g'onlikdagi ip ishlab chiqarish uchun korhonada yigirish rejasi tuziladi. Bu reja asosiy hujjatlardan biri bulib u uz ichiga hamma mashinalardan olinadigan yarim tayyor mahsulotlar va ipning chiziqli zichliklari, ko'shilish soni, pilik va ipning pishitilish koeffisienti, 1m ga to'g'ri keladigan buramlar soni, cho'zish kattaligi va mashinalarning mahsulot chiqarish tezliklari ko'rsatiladi. Yigirish rejasi kanchalik optimal tuzilsa, korhona shunchalik samarador ishlaydi.

Yigirish rejasining har bir parametrini asoslash uchun loyihalovchi texnika sohasidagi adabiyotlarni, ilg'or korhonalarning ish tajribalarini yahshi bilishi va takkoslashi kerak. Texnologik jarayonlarga ta'sir kiluvchi asosiy omillardan mashinalarning ish unumdorligini oshirishda va mahsulot sifatini yuqori bo'lishini ta'minlashda foydalanish zarur.

Korhonada texnologik jarayonlar to'g'ri borishi uchun har bir yo'g'onlikdagi ip yigirish uchun alohida yigirish rejasi tuziladi. Rejadagi har bir ko'rsatkich atroflicha asoslandi. Odatda ko'rsatkichlarni tanlashda mahsus muassasalar tavsiyalariga [13], ilmiy tekshirish ishlari natijalariga, korhonalarning tajribalariga asoslanildi.

O'timlar bo'yicha ip va yarim tayyor mahsulotlarning chiziqli zichliklari asoslash (T) kushilishlar soni (d) chuzish miqdorini (E) qabul qilish va asoslash

Yigirish rejalarini tuzish ip yigirish texnologik jarayonlarining borish tartibiga mos ravishda amalga oshirildi. Loyihaning bu bo'limida ip va yarim tayyor

mahsulotlarning chiziqli zichliklari, ko`shilishlar soni, cho`zish kattaligi qabul qilish yoki hisoblash yo`llari bilan asoslandi.

1. C 70 rusmli tarash mashinasi

a) mashinaning texnik imkoniyati: $T = 4-20$ kteks

b) korhona tajribasi bo`yicha: $T = 5,9$ kteks

v) Loyihada qabul qildim: $T = 5,5$ kteks

2. SB-D 40 rusumli 0-o`tim piltalash mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik imkoniyati: $T = 1,25-7$ kteks

$E = 4,4-11,7$ $d = 6-8$

b) korhona tajribasi bo`yicha: $T = 5,0$ kteks. $E = 8$ $d = 8$

v) Loyihada qabul qildim:.

$T = 5,5$ kteks

$d = 6$ $E = 6$

3. Qayta tarashga tayyorlash mashinasi UNIlap E 35

a) mahinaning texnik tavsifi bo`yicha:

$T = 140$ kteks $E = 1,36-2,2$ $d = 24$

b) loyihada qabul qildim

$$E = \frac{T_{kur}}{T_{chik}} \cdot d = \frac{5,5 \cdot 24}{80} = 1,65$$

4. Qayta tarash mashinasi E 80

a) mashinaning texnik tavsifi

$T = 3-6$ kteks $E = 9,12-25,12$ $d = 4$

b) Loyihada qabul qildim:.

$T = 5,5$ kteks $d = 4$ $y = 15\%$

Qayta tarash mashinasida cho`zish miqdorini aniqlashda ajratiladigan tarandining miqdori hisobiga olinadi:

$$E = \frac{T_{kur}}{T_{chik}} \cdot d = \frac{100 \cdot y}{100} = \frac{80 \cdot 4}{5,5} \cdot \frac{100 - 15}{100} = 52,4$$

Bunda $T_{куп}$ va $T_{чик}$ - kirayotgan va chikayotgan mahsulotlarning chiziqiy zichligi, kteks

y- ajralayotgan tarandining miqdori

5. SB-D 45 rusumli 1- o`tim pitalash mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik tavsifi

$$T=1,25-7,0 \text{ kteks} \quad E=4,5-11,7 \quad d=6-8$$

b) Loyihada qabul qildim:.

$$T=5,5 \text{ kteks} \quad d=8$$

$$E = \frac{T_{куп}}{T_{чик}} \cdot d = \frac{5,5 \cdot 8}{5,5} = 8$$

6. RSB-D 45 rusumli 2-o`tim pitalash mashinasi uchun:

a) mashinaning tehnik imkoniyati:

$$T = 1,25-7 \text{ kteks} \quad E = 4,5-11,7 \quad d = 6-8$$

b) korhona tajribasi bo`yicha: $T = 5,0 \text{ kteks.} \quad E = 8 \quad d = 8$

v) Loyihada qabul qildim: $d = 8 \quad E = 8$

$$T=5,5$$

Pitalash mashinalarida cho`zish kattaligi va ko`shish sonlarini asoslash yo`li bilan tanlandi. Odatda bu kattaliklar o`zaro teng qabul qilinadi.

7. Piliklash mashinasi F 35

a) mashinaning tehnik imkoniyati: $T = 170-1450 \text{ teks; } E=4 \div 20$

b) Loyihada qabul qildim:

$$T=650 \text{ teks}$$

$$E = \frac{T_n}{T_{un}} = \frac{5500}{650} = 8,5$$

8. Xalkali ip yigirish mashinasi G 35

a) mashinaning texnik tavsifi

$$T=132-3,7 \text{ teks}$$

$$E=8-120 \text{ gacha}$$

b) Loyihada qabul qildim:

$$T=9,5$$

$$E = \frac{T_{куп}}{T_{уч}} \cdot d = \frac{650}{9,5} = 68$$

9. Qayta o`rash mashinasi: Autoconer X5

a) mashinaning texnik tavsifi

T=5,9-333 teks

b) Loyihada qabul qildim:

T=9,5 teks

Pilik va ipni pishitilish darajasini aniqlash

Pishitish koeffisientlarini va pishitilish miqdori piliklash, yigirish va pishitish mashinalari uchun aniqlanadi. Pishitish miqdorini tanlashda bir kator omillarni hisobga olish kerak. Ma'lumki, pishitish miqdori ko'p bo'lsa, yigirish mashinalarining ish unumdorligi pasayib ketadi, chunki mashinaning ish unumdorligini pishitishga teskari proporsionaldir. Agar pishitish miqdori me'yordagidan kam bo'lsa, yigirish mashinalarida ip uzilishi ko'payib ketadi, arqoq ipi ko'proq pishitiladigan bo'lsa, to'kuvchilikda arqoq ipida chigallar hosil bo'lib, gazlamaning tashqi ko'rinishi buziladi. SHuning uchun har bir chiziqiy zichlikdagi ipni yigirish uchun mukobil pishitish koeffisientlarini tanlash kerak chunki texnologik jarayonning me'yorda bo'lishini va ipning sifati yuqori bo'lishini ta'minlash zarur. Pishitish miqdorini tanlashda tola uzunligining ahamiyati katta. Tola kancha uzun bo'lsa, pishitilish miqdori shuncha kam bo'lishi mumkin. Agar ip tandaga ishlatiladigan bo'lsa, unda arqoq ipiga karaganda pishitilish miqdori 10—15 % foiz ko'p bo'lishi kerak.

Pishitish deb uzunlik birligiga to'g'ri keluvchi buramlar soniga aytiladi yoki bir metrdagi buramlar soniga pishitish deyiladi. Yigirish rejasini tuzishda ipning pishitilish darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$K = \frac{\alpha * 100}{\sqrt{T}}$$

Bunda: α - pishitish koeffisienti:[12]

T- mahsulotning chiziqli zichligi.

Pilik uchun:

$\alpha_m = 7,52$ [7] adabiyotdan olamiz

$$K = \frac{\alpha_m \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{7,52 \cdot 100}{\sqrt{650}} = 306p / m$$

Tanda ipi uchun: $K = \frac{\alpha_m \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{31,8 \cdot 100}{\sqrt{10,8}} = 966,66p / m$

Arqoq ipi uchun: $K = \frac{\alpha_m \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{31,6 \cdot 100}{\sqrt{9,5}} = 10266p / m$

Pishitish koeffisientlarini mahsulot chiziqli zichligiga, tolaning uzunligiga va ipning qo'llanish qo'lamiga qarab tanlanadi. Bunda pishitish darajasi kritik qiymatdan katta bo'lib ketganda uning pishiqligi keskin kamayishini alohida hisobga olish lozim.

Asosiy texnologik jihozlarning chiqarish ishchi qismlarining tezliklarini tanlash va asoslash.

Jihozlarni chiqarish qismlari a'zolari tezliklarini ularning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlandi. Bunda tezlik jihozlarning aniq markasini tanlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Odatda mashinaning texnik tavsifida tezlikni ma'lum oralig'i ko'rsatiladi. Qisqa yigirish rejasini dastlabki variant bo'lgani uchun tezliklarini maksimal imkoniyatdan biroz kamroq olish maqsadga muvofiqdir. Chunki yigirish rejasini qayta hisoblashda o'zgartirishlar kiritishga to'g'ri keladi.

1. C 70 rusmli tarash mashinasi

a) mashinaning texnik imkoniyati:

Chiqarish tezligi $V_c = 650 - 950 m / min$ $\Pi_n = 220 \kappa z / c$

b) korhona tajribasi bo'yicha: $V_c = 190 m / min$ $\Pi_n = 60 \kappa z / c$

v) Loyihada qabul qildim: $\Pi_n = 100 \kappa z / c$

$$V_c = \frac{\Pi_n \cdot 1000}{60 \cdot T_n \cdot e} = \frac{100 \cdot 1000}{60 \cdot 5,5 \cdot 1,1} = 275,48 m / min$$

bunda,

P_n - tarash mashinasining nazariy ish unumdorligi, kg/s;

d_a - ajratuvchi baraban diametri, mm;

V_c — ajratuvchi barabanning aylanish tezligi, m / min;

T_p — piltaning chiziqiy zichligi, kteks;

e - ajratish barabani bilan pilta tahlagich o`rtasidagi cho`zilish.

2. Piltalash mashinasi. SB-D 45 rusumli 0-o`tim;

a) mashinaning texnik imkoniyati $V_c = 1000 \text{ m} / \text{min}$

b) Loyihada qabul qildim: $V_c = 800 \text{ m} / \text{min}$

3) Qayta tarashga tayorlash mashinasi UNIlap E35

a) mashinaning texnik imkoniyati $V_c = 70 - 120 \text{ m} / \text{min}$

b) Loyihada qabul qildim $V_c = 100 \text{ m} / \text{min}$

4) Qayta tarashga mashinasi E80

a) mashinaning texnik imkoniyati $n = 450 \text{ m} / \text{min}$

b) Loyihada qabul qildim $n = 340 \text{ m} / \text{min}$

5) SB-D 45 rusumli 1-o`tim piltalash mashinasi uchun:

Piltalash mashinalari uchun tezlik tanlashda eng avvalo mashinalarning turlariga qarash kerak bo`ladi. Piltalash mashinalari korhonalarida $V=700 \text{ m/min}$ tezlikda ishlamoqda. Mashinalarning texnik tavsiflarida esa berilgan tezliklar $V=1100 \text{ m/min}$ gacha etadi. SHuning uchun ham bu mashinalarning tezligini karda sistemasida $V=900 \text{ m/min}$, qayta tarash sistemasida $V=700 \text{ m/min}$ atrofida olingani ma`qul. SHuni ham nazarda tutish kerakki, piltalash mashinalarining birinchi va ikkinchi boskichida tezliklari bir hil olsa bo`ladi.

a) mashinaning texnik imkoniyati: $V_c = 1100 \text{ m} / \text{min}$; $\Pi_n = 300 \text{ kg} / \text{s}$

b) korhona tajribasi bo`yicha: $V_c = 700 \text{ m} / \text{min}$ $P_n = 193 \text{ kg} / \text{s}$

v) Loyihada qabul qildim: $V_c = 700 \text{ m} / \text{min}$ $\Pi_n = 230 \text{ kg} / \text{s}$

$$V_y = \frac{P_n \cdot 1000}{60 \cdot T_n} = \frac{230 \cdot 1000}{60 \cdot 5,0} = 767 \text{ м / мин}$$

Bunda: V_y - birinchi silindrning chiziqliy tezligi, m/min;

T_p — piltaning chiziqliy zichligi, teks;

P_n — piltalash mashinasining nazariy ish unumdorligi, kg/soat.

6. RSB-D 45 rusumli 2-o`tim piltalash mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik imkoniyati: $V_c = 1100 \text{ м / мин}$; $\Pi_h = 300 \text{ кг / с}$

b) korhona tajribasi bo`yicha: $V_c = 700 \text{ м / мин}$ $P_h = 193 \text{ кг / с}$

v) Loyihada qabul qildim: $V_c = 700 \text{ м / мин}$ $\Pi_h = 230 \text{ кг / с}$

$$V_y = \frac{P_n \cdot 1000}{60 \cdot T_n} = \frac{230 \cdot 1000}{60 \cdot 5,0} = 767 \text{ м / мин} \quad 1 \text{ ta chiqarish uchun}$$

bunda

V_y - birinchi silindrning chiziqliy tezligi, m/min;

T_p — piltaning chiziqliy zichligi, teks;

P_n — piltalash mashinasining nazariy ish unumdorligi, kg/c

7) piliklash mashinasi F 35

a) mashinaning texnik imkoniyati $n_y = 1500 \text{ мин}^{-1}$

v) Loyihada qabul qildim $n_y = 1000 \text{ мин}^{-1}$

8. G 35 rusumli yigirish mashinasi:

a) mashinaning texnik imkoniyati: $n_k = 25000 \text{ мин}^{-1}$;

b) korhona tajribasi bo`yicha: $n_k = 21000 \text{ мин}^{-1}$

v) Loyihada qabul qildim:

Tanda ipi uchun: $n_k = 19000 \text{ мин}^{-1}$

Arqoq ipi uchun: $n_k = 20000 \text{ мин}^{-1}$

9)qayta o`rashga mashinasi Autoconer X5

a) mashinaning texnik imkoniyati $V = 20000 \text{ мин}$

b) Loyihada qabul qildim $V = 12000 \text{ мин}$

Qisqa yigiruv rejasi (Tanda ipi uchun)

18-jadval

t.r	Texnologik jarayondagi o`timlar	YArim mahsulot va ipning chiziqli zichligi, teks		Umumiy cho`zish miqdori, E	YArim mahsulot-larning ko`shilish lar soni, d	Pishitish koeffisienti va buramlar soni		Texnologik jarayondagi jihozlar ishchi a`zolarining aylanishlar soni va tezligi	
		Ta`minl a nayotga n	CHika yot gan			α_t	K br/m	n min ⁻¹	v m/min
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	Tarash	-	5500		1				275
2	Pitalash 0-o`tim	5500	5500	6	6				800
3	Qayta tarashga tayorlash	5500	80000	1,65	24				100
4	Qayta tarash	80000	5500	52,4	4			340	
5	Pitalash 1-o`tim	5500	5500	8	8				700
6	Pitalash 2-o`tim	5500	5500	8	8				600
7	piliklash	5500	650	8,5	1	7,52	30	1000	
8	Yigirish a	650	9,5	68	1	32,4	1045	2000 0	
9	Yigirish t	650	10,8	68	1	34,0 1	966,6	1900 0	
10	Qayta o`rash	9,5	9,5	1	1		1		1200

3.2. Jixozlarni unumdorliklarini aniqlash

Qabul qilingan yigirish tizimga muvofiq yarim tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan jihozlarning nazariy ish unumdorliklarini tegishli formulalar yordamida hisoblab topamiz. Barcha ko'rsatgichlar qisqa yigiruv rejasidan olinadi.[14]

1. C 70 rusmli tarash mashinasi

a) mashinaning texnik imkoniyati:

Chiqarish tezligi $V_c = 650 - 950 \text{ м/мин}$ $\Pi_n = 220 \text{ кг/с}$

b) korhona tajribasi bo'yicha: $V_c = 190 \text{ м/мин}$ $\Pi_n = 60 \text{ кг/с}$

v) Loyihada qabul qildim: $V_c = 100 \text{ м/мин}$ $\Pi_n = 85 \text{ кг/с}$

$$P_n = \frac{V_c \cdot 60 \cdot T_n \cdot e}{1000} = \frac{275 \cdot 60 \cdot 5,0 \cdot 1,1}{1000} = 100 \text{ кг/с}$$

n_c -ajratib oluvchi baraban aylanishlar soni, min^{-1}

d_c - ajratib oluvchi baraban diametri, mm

T_1 -piltaning chiziqli zichligi, kteks

2. SB-D 45 rusumli 1-o`tim piltalash mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik imkoniyati: $V_c = 1100 \text{ м/мин}$; $\Pi_n = 300 \text{ кг/с}$

b) korhona tajribasi bo'yicha: $V_c = 700 \text{ м/мин}$ $P_n = 193 \text{ кг/с}$

v) Loyihada qabul qildim:

$$\Pi_n = \frac{\pi \cdot T_n \cdot d_y \cdot n_y \cdot 60}{1000^2} = \frac{800 \cdot 5,0 \cdot 60}{1000} = 264 \text{ кг/с}$$

$n_{\text{ч}}$ -cho`zish asbobidagi chiqaruvchi silindr aylanishlar soni, min^{-1}

$d_{\text{ч}}$ - cho`zish asbobidagi chiqaruvchi silindr diametri, mm

T_1 -piltaning chiziqli zichligi, kteks

3. RSB-D 45 rusumli 2-o`tim piltalash mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik imkoniyati: $V_c = 1100 \text{ м/мин}$; $\Pi_n = 300 \text{ кг/с}$

b) korhona tajribasi bo'yicha: $V_c = 700 \text{ м/мин}$ $P_n = 193 \text{ кг/с}$

v) Loyihada qabul qildim:

$$\Pi_n = \frac{\pi \cdot T_n \cdot d_y \cdot n_y \cdot 60}{1000^2} = \frac{700 \cdot 5,5 \cdot 60}{1000} = 231 \text{ кг/с}$$

$n_{\text{ч}}$ -cho`zish asbobidagi chiqaruvchi silindr aylanishlar soni, min^{-1}

$d_{\text{ч}}$ - cho`zish asbobidagi chiqaruvchi silindr diametri, mm

T_1 -piltaning chiziqli zichligi, kteks

4. piliklash mashinasi

n_{q} -choʻzish asbobidagi chiqaruvchi silindr aylanishlar soni, min^{-1}

T_1 -piltaning chiziqli zichligi, kteks

$$A_n = \frac{n_y \cdot 60 \cdot T_p}{1000^2} = \frac{1000 \cdot 60 \cdot 500}{35,24 \cdot 1000^2} = 0,85 \text{ kZ/coam}$$

5. G 35 rusumli yigirish mashinasi

a) mashinaning texnik imkoniyati: $n_k = 25000 \text{ muH}^{-1}$;

b) korhona tajribasi boʻyicha: $n_k = 20000 \text{ muH}^{-1}$

v) Loyihada qabul qildim

$$A_n = \frac{n_y \cdot 60 \cdot T_p}{k \cdot 1000^2} = \frac{20000 \cdot 60 \cdot 10,8}{966,6 \cdot 1000^2} = 0,0134 \text{ kZ/coam} \quad 1 \text{ ta urchuk uchun}$$

$$A_n = \frac{n_y \cdot 60 \cdot T_p}{k \cdot 1000^2} = \frac{19000 \cdot 60 \cdot 9,5}{1026 \cdot 1000^2} = 0,011 \text{ kZ/coam} \quad 1 \text{ ta urchuk uchun}$$

6. Qayta oʻrash mashinasi

$$A_n = \frac{V \cdot 60 \cdot T_p}{1000^2} = \frac{1200 \cdot 60 \cdot 10,8}{1000^2} = 0,77 \text{ kZ/coam}$$

$$A_n = \frac{V \cdot 60 \cdot T_p}{1000^2} = \frac{1200 \cdot 60 \cdot 9,5}{1000^2} = 0,68 \text{ kZ/coam}$$

T_{ip} -ipning chiziqli zichligi, teks

K -bir metr mahsulotdagi buramlar soni, br/m

V_{ch} -chiqaruvchi val tezligi, m/min

Barcha tanlangan va hisoblangan amallarni qisqa yigirish rejasi jadvaliga yigʻiladi. Qisqa yigiruv rejasi tanda va arqoq iplari uchun alohida-alohida yigʻiladi.

Mashinalarning foydali vakt koeffisienti va mashinalarni ishlashini

taʼminlash koeffisientlarini qabul qilish va asoslash

Yigirish korhonalari loyihalashda bu koeffisientlarni hisoblash yoki asoslab qabul qilinadi. Bunda olingan natijalar albatta tavsiyalar va korhona tajribalari bilan solishtirib asoslangan boʻlishi lozim.

Texnologik jarayondagi jihozlarning foydali vakt koeffisienti va mashinalarni ishlashini ta'minlash koeffisientlarini qabul qilish va asoslash

19-jadval

Texnologik jarayondagi o'timlar	Ilmiy tekshirish institutlarining tavsiyasi		Ishlab turgan korhona tavsiyasi		Loyihada qabul qildim	
	F.v.k	M.i.k	F.v.k	M.i.k	F.v.k	M.i.k
Tarash	0,92	0,95	0,94	0,97	0,95	0,97
Pitalash 0-o'tim	0,81	0,975	0,83	0,975	0,95	0,975
Qayta tarashga tayorlash	0,82	0,975	0,75	0,975	0,85	0,975
Qayta tarash	0,95	0,945	0,92	0,945	0,92	0,95
Pitalash mashinasi						
1-o'tim	0,81	0,975	0,87	0,975	0,95	0,975
2-o'tim	0,81	0,975	0,87	0,975	0,95	0,975
Pitalash mashinasi	0,78	0,98	0,87	0,97	0,95	0,97
Yigirish mashinasi	0,92	0,96	0,94	0,96	0,94	0,96
Autoconer X5	0,92	0,96	0,94	0,96	0,92	0,96

Jihozlarning unumdorlik normasi va hisobiy unumdorliklarini hisoblash

Jihozlarni unumdorlik normasi va hisobiy unumdorliklarini quyidagicha hisoblanadi.

Unumdorlik normasi:

$$HII = A_{ii} \cdot \Phi BK$$

Hisobiy unumdorlik esa:

$$A_x = HII \cdot MIIK$$

O'timlar bo'yicha mashinalarni unumdorlik normasi va hisobiy unumdorligi quyidagicha:

20-jadval

№	Texnologik jarayondagi o'timlar	A_n	F.v.k	NP	M.i.k	A_h
1	Tarash	100	0,95	95	0,97	92,15
2	Piltalash 0-o'tim	264	0,9	237,6	0,975	231,66
3	Qayta tarashga tayorlash	480	0,85	408	0,975	397,8
4	Qayta tarashg	65,5	0,92	62,26	0,95	59,147
5	Piltalash 1- o'tim	264	0,9	237,6	0,975	231,66
6	Piltalash 2- o'tim	231	0,9	207,9	0,975	202,70
7	Piliklash	0,85	0,9	0,765	0,975	0,745
8	Yigirish mashinasi Tanda	0,0134	0,94	0,0126	0,96	0,012
9	Yigirish mashinasi Arqoq	0,011	0,94	0,01034	0,96	0,0100
10	Qayta o'rash Tanda	0,77	0,92	0,7084	0,96	0,680
11	Qayta o'rash Arqoq	0,68	0,92	0,6256	0,96	0,600

O'timlar bo'yicha pakovkalarni tanlash va hisoblash

Har bir o'timda olinadigan yarim mahsulot hajmi va massasi katta ahamiyatga ega. Pakovkalar yiriklashgan sari uskunalardan foydalanish samaradorligi ortadi va to'htashlar soni kamayadi. Pakovkalarining o'lchamlarini tanlashda kompleks yondoshish lozim. SHuning uchun ilg'or yigirish korhonalari ko'rsatkichlaridan foydalanish ma'qul [17,18,19,20,21,22].

Tazdagi pilta massasini kg larda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

1. Tarash mashinasida.

taz balandligi, 1000 mm

D –taz diametri, 600

Tazdagi pilta og`irligi 36k/s

2. Pitalash mashinasida 0-o`tim.

taz balandligi, 1000 mm

D –taz diametri, 600

Tazdagi pilta og`irligi 36kg

3.qayta tarashga tayorlash

Xolstni og`irligi 30 kg/s

4.qayta tarash

taz balandligi, 1000 mm

D –taz diametri, 600

Tazdagi pilta og`irligi 36kg

5. Pitalash mashinasida 1-o`tim.

taz balandligi, 1000 mm

D –taz diametri, 600

Tazdagi pilta og`irligi 40k

6. Pitalash mashinasida 2-o`tim.

taz balandligi, 1000 mm

D –taz diametri, 600

Tazdagi pilta og`irligi 40k

